

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ASHURALI ZOHIRIYNING SIYOSIY QARASHLARI

O‘rinboyev Omadjon Odiljon o‘g‘li
Farg‘ona davlat Yuridik texnikumi o‘quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ashurali Zohiriyning o‘zbek milliy matbuoti rivojiga qo‘shgan hissasi, uning noshirligida chiqarilgan “Yurt” jurnali va jurnalda chop etilgan maqolalar haqida so‘z boradi. Shuningdek, “Yurt” jurnalidagi “Hukumat o‘zgarishi” nomli maqolasi tabdili berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek milliy matbuoti, “Yurt” jurnali, eski o‘zbek yozuvi, Turkiston jadidlari.

Abstract: This article talks about Ashurali Zahiri's contribution to the development of the Uzbek national press, the magazine "Yurt" published by him, and the articles published in the magazine. Also, the article entitled "Government Change" in "Yurt" magazine is presented.

Key words: Uzbek national press, "Yurt" magazine, old Uzbek writing, modern Turkestan.

Аннотация: В данной статье рассказывается о вкладе Ашурали Захири в развитие узбекской национальной печати, издаваемого им журнала «Юрт», опубликованных в журнале статей. Также представлена статья «Смена правительства» в журнале «Юрт».

Ключевые слова: Узбекская национальная пресса, журнал «Юрт», старая узбекская письменность, современный Туркестан.

Ashurali Zohiriy o‘zbek jurnalistikasi rivojiga munosib ulush qo‘shgan jurnalistlardandir. U “Sadoyi Farg‘ona”, “Xalq gazetasi”, “Mehnat bayrog‘i”, “Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona” va boshqa ko‘plab gazetalarda adabiy xodim, muharrir bo‘lib ishlab, matbuot tilini shakllantirish, insonlarga ma‘rifat ulashish faoliyati bilan ham shug‘ullangan.

Ma‘lumki, 1917-yilning mart-aprel oylari o‘lkamizning siyosiy uyg‘onishida burilish davri bo‘ldi. Paydo bo‘lib kelayotgan milliy demokratik kuchlarning yetakchisi jadidlar bo‘lib qoldi, ular o‘zlarining avvalgi butun faoliyatlari bilan shu vazifaga tayyorlangan edilar. Ular demokratik inqilobga va u e‘lon qilgan tamoyillarga katta umid bog‘lab, uning g‘oyalari va shiorlarini amalga oshirishga faollik bilan kirishdilar. Shu oylarda ular xalq ongi shuurida jiplashish, milliy birlikni mustahkamlash ehtiyojini uyg‘otish bobida muhim qadamlar qo‘yishga erishdilar.

Jumladan, 1917-yilda Ashurali Zohiriyning noshirligi va muharrirligi ostida “Yurt” nomli siyosiy, ijtimoiy, tarixiy, adabiy haftalik jurnal ta‘sis etilgan va uning 4 ta soni o‘quvchilarga yetib kelgan (“Yurt” jurnalining 1 va 4-sonlari Qo‘qon adabiyot muzeyi fondida saqlanmoqda. Jurnal eski o‘zbek yozuvida chop etilgan). Mazkur jurnal “Yashasin muxtoriyatli xalq jumhuriyati!” shiori ostida chop etilgan.

Jurnalning birinchi sonidan quyidagi maqolalar o‘rin olgan:

1. Maqosid va a‘molimiz.
2. Hukumat o‘zgarishi.
3. Milliy va ruhoni boylig‘imiz.
4. She‘r. Chin musulmon bo‘layliq.
5. Iste‘molchilar jamiyati.

6. Turkistonga oid.

7. Kichik feleton.

8. Yangi asarlar.

1917-yil fevral-burjua inqilobini Turkiston jadidlari behad shodlik va xayrixohlik bilan kutib oldilar. Chunki inqilob e'lon qilgan Musovot, Ozodlik, Tenglik, Birodarlik shiorlari chor hokimiyati asoratidagi xalqlarning orzu-istaklariga hamohang edi. Jadid ziyolilari Fevral inqilobi keltirgan imkoniyatdan foydalanib, milliy davlat qurish g'oyalarini amalga oshirish yo'lida kurashga bel bog'ladilar.

Jadidchilik harakatining peshqadamlaridan biri bo'lmish Ashurali Zohiriy ham ushbu maqsadlar yo'lida tinimsiz harakat qildi. U o'z maqolalarida milliy davlat qurish, xalqni uyg'otish, ma'rifatli qilish, birlashish g'oyalarini ilgari surdi.

Quyidagi "Yurt" jurnalining 1-sonida nashr etilgan "Hukumat o'zgarishi" nomli maqolasida ushbu maqsadlar mujassamdir.

Hukumat o'zgarishi Muhtaram dindoshlar!

Ota-bobosi bilan 300 yildan buyon va o'zi 22 yildan beri ulug' rusiyaning taxtida o'turg'on podshoh 28-fevralda taxtidan tushurilib, maxbus etildi. Vazirlarini ham arestoniskiye otdileniya nomlik (katta aybliklar ovog'i)ga qamadilar. Mamlakat idorasini bir tartibga qo'yub bo'lg'onlaridan keyin ishlarini qarab, loyiq bo'lg'on jazolarini berurlar. Bu ong'acha adolat, musovot va haqqoniyat hibisda edi. Ammo zulm, jabr, xiyonat hukumfarmo edi. Endi bularni tutib, ularning o'rinlarig'a yotquzdilar. Adolat, musovot, hurriyat yuzlarini bir ko'rmoqqa zor bo'lub yotgan ulug' rusiyaning har grajdan o'g'ullarining ziyoratig'a yubordilar.

Buni kimlar qildi? – Xalq vakillari – g'duma qildi! Podshoh ham дума xalqniki, zohirda podshoh ustun va baland ko'rusla ham, ammo haqiqatda дума andan zo'rdur, ulug'dur. Shunday bo'lsa ham дума ochilg'on kuni (1905-yil 17-oktabr)dan buyon hukumati mustabida qo'lida bir o'yichoqdek bo'lub keldi. Ya'ni xohlasa, dumani yig'di, xohlamasa, tarqatdi. Agar дума a'zolaridan ba'zilar haqiqatni ochubroq so'zlamog'ga boshlasa yoki xalq va fuqaro uchun foydalik masalalarda tortishmog'ga boshlasa, "дума so'llanib ketibdur!" deb, butun dumani quvib, yangidan saylovlar chiqarub, saylovlarda ham xalqning xohishig'a qo'ymay, avvalda ko'z ostig'a olub qo'yg'on kishilarini saylatdurmaslikka harakatlar qilib keldi. Imkoni boricha o'zining so'zidan chiqmaydurg'onlarni hukumati oldida millatining millionlarcha foydasini ham qurbon qilodurg'on, yoki hech narsadan xabari yo'q, quruq kishilarni saylatdurodurg'on bo'lub keldi. Hatto, rusiya hukumatini "hukumati mashruta" deb atamoqqa qo'ymay, "hukumati mutlaqa" (samo derjaviye)ni talqin etdurub, 19-asrni unutmadi.

Shunday tadbirlar bilan ulug' rusiyaning yuz yetmishin million nufusini temir panjasi ostida olib kelgon bo'lsa ham bu mashrutiyatga qanday fidokorlig'lar va qanday qurbonlar bilan yetishkonliklarini yodda tutkon vatan o'g'ullari uxrifning hiylalarig'a tamom mag'mum bo'lub qolmag'on edilar. "Tortish! Tortishmog'da toparsan, san o'z huquqingni!" mazmunicha qilg'on hukumat bilan дума ko'b vaqt kurashib keldi. Ya'ni hukumat faqat o'z foydasini, дума esa xalq – siz va bizning foydamizni ko'zlar edi. Bu yo'lda ko'b zotlarning umrlari turmalarda o'tub ketdi, qonlari qurbon, xonalari vayron bo'ldi. Eng osoni Sibiriyaning sovuq yerlarig'a borsa-kelmas qilingan edi. Shul kayfiyatda ko'b yillar o'tdi, ko'b yoshlar, ko'b qonlar zulm tikoni oquzilmoq uchun oqizuldi. Xalq ilmsiz, hunarsiz, huquqsiz va tag'in allanarsalarsiz yashab kelub edi.

Tangri taolaga shukurlar bo'lsin! "Al-haq ya'lub val ya'la" holicha haqliq tarafdori bo'lgo'n дума oxirda zulm ifratini yiqitdi. Qufullang'on umid eshiklarini ochdi. Endi rusiyada yashag'uchi

jumla vatan bolasiq'a bir ko'z bilan qaralur. "Hurriyat", "Musovot", "Adolat" quyoshidan hamma barobar foydalanur. Lekin "Endi hammaga bir ko'z bilan qaralur ekan! Hamma barobar foydalanur ekan!" deb, tek o'turg'on bilan ish bitmas. "Mana, sizning so'rag'onlaringiz! Mana, sizning muddaolaringiz!" deb, hech kim qo'ynimizga solib qo'ymas.

O'zimizning diniy, milliy, ehtiyojlarimizni o'zimiz bilamiz, o'zimiz tushunamiz. "Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o'z ayog'i bilan kelur" deganidek, "Adolat", "Musovot" bizga o'zi keldi. O'zi kelgan tabibga bemor dardining qanday ekonligini aytmasa, tuzala olmag'onidek, hozirgi daqiqlarda ham o'z kerakliklarimizni va o'z ehtiyojlarimizni indamasak, kim bilsin, balki, "bular shuk turmushlarig'a rozi ekon!" deyurlar.

Endi zamonig'a qarab harakat etaylik! Bilmag'onimizni bilganlardan so'raylikda, iloji borochoa ittifoqlik bilan ishga kirishaylik! Ittifoq har nav zulmdan qutulmoqning muqaddimasidur. Muqaddima yaxshi bo'lur, ammo muqaddima qurilg'onda (ish boshlang'onda) bir lahza ham g'aflat qilinmasun endi, chunki, g'aflatning natijasi doimo pushaymondur. Xususan, bunday muhim fursatlarda g'aflat ulug' bir jinoyatdur. Joniylar kim bo'lsa bo'lsun, Alloh taolo ham xalq oldida muohaza qilinur. Xususan, avomunnos o'zlarig'a peshvo qilib olg'on imomlar, eshonlar mas'ul bo'lurlar.

Bizning vazifamiz shul zavoti kromlarga o'z vazifalaridan xabar bermoqdur, ammo ularning vazifalari avomunnosni matlabdan va yangi hukumat maslagidan xabardor etmakdur.

Maskovdagi umumrusiya musulmonlarining isizdlari (siyezd) bo'lub o'tdi. Endi oldimizda muassislar majlisi (sobraniye uchrediteley)g'a kishi saylamog'imiz turubdur. Mana bu saylovg'a hozirdan tayyorlanmog'imiz lozim.

Bir so'z bilan aytganda, Ashurali Zohiriy milliy uyg'onish davrining taniqli ma'rifatparvar ziyolisidir. U o'zining bor bilim va imkoniyatini xalqni ma'rifat bilan tarbiyalash, ziyoli qilish, milliy ta'lim tizimini joriy etish, o'zbek tilini takomillashtirish va qadrini oshirish kabilarga bag'ishladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "...Butun umrini el-yurtni, millatimizni ma'rifatli va madaniyatli qilishga bag'ishlagan, 1937-yili "xalq dushmani" sifatida qatag'on qurboni bo'lgan bu betakror insonning xotirasini munosib qadrlash, nomini abadiylashtirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsak, o'ylaymanki, tarixiy adolat qaror topadi".

ADABIYOTLAR:

1. elib.buxdu.uz
2. "Yurt" jurnali, 1-son. 1917-yil 1-iyun. Qo'qon adabiyot muzeyi fondi.
3. O'zbekistonning yangi tarixi, 2-kitob [O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], T., 2000